

INGLIZ CHAT NUTQINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Majidova Maftuna Samad qizi

Yangiyo'l tumani 26-umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7184921>

Annotatsiya. Ingliz tilshunos olimlari bizni chatning noxush oqibatlaridan ogohlantirib, tilimizni asrab-avaylashga chaqirishadi. Negaki, bugungi kun ingliz yoshlari chat nutqi sifatida o'zlariga yangi "lingo" deb nomlanuvchi til ixtiro qilishgan. Bu tilda so'zlar shunchaki qisqartirilmaydi, balki butunli boshli gap tarkibidagi so'zlarning faqat bosh harflaridan iborat stenogrammalardan foydalaniladi. Bunday xabarlarni deshifrlash katta qiyinchiliklar tug'diradi. Ota-onalar endi farzandlarining kim bilan, qachon, qayerda ekanligi haqida deyarli ma'lumotga ega emas. Bu esa, ota-onalar va farzandlar o'rtasida nizolarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababdan, qator ingliz tilshunoslari ota-onalar uchun maxsus chat lug'atlarini yaratganlar va bu sohadagi ilmiy izlanishlar bugungi kunda davom etmoqda.

Kalit so'zlar: lingo, chatroom, stenogramma, emoji, kriptografik kod, abbrevatura, ijtimoiy tarmoq, electron pochta, sms.

ОСОБЕННОСТИ АНГЛИЙСКОЙ РАЗГОВОРНОЙ РЕЧИ

Аннотация. Английские лингвисты предупреждают нас о неприятных последствиях болтовни и призывают сохранить наш язык. Потому что сегодня молодые англичане изобрели новый язык, известный как «жаргон» для общения в чате. В этом языке слова не просто сокращаются, а используются сокращения, состоящие только из начальных букв слов в полном предложении. Расшифровка таких сообщений представляет большие трудности. У родителей сейчас почти нет информации о том, кто, когда и где находятся их дети. Это вызывает конфликты между родителями и детьми. По этой причине ряд английских лингвистов создали специальные чат-словари для родителей, и научные исследования в этой области продолжаются и сегодня.

Ключевые слова: жаргон, чат, стенография, эмодзи, криптографический код, аббревиатура, социальная сеть, электронная почта, смс.

FEATURES OF ENGLISH SPEECH

Abstract. English linguists warn us of the unpleasant consequences of chatter and urge us to save our language. Because today, young English people have invented a new language known as "jargon" for chatting. In this language, words are not just abbreviated, but abbreviations are used, consisting only of the initial letters of words in a full sentence. Deciphering such messages is very difficult. Parents now have almost no information about who, when and where their children are. This causes conflicts between parents and children. For this reason, a number of English linguists have created special chat dictionaries for parents, and scientific research in this area continues today.

Keywords: chat, shorthand, emoji, cryptographic code, abbreviation, social network, email, sms.

KIRISH

Ingliz tilidagi chat nutqining vujudga kelishi dastlab harbiy maqsadlar bilan bog'liq bo'lsa-da, uning bugungi shakl va mazmunni kasb etishi Amerika Qo'shma Shtatlari va Buyuk Britayaning mustamlakachilik va ochiq eshiklar siyosati bilan bog'likdir. Yangi texnologiya bizni ko'plab yangi muloqot shakllari bilan tanishtirdi. Bunday mobil qurilmalar, uyali telefonlar

va simsiz qo‘lbola kompyuterlar internet bilan birga ommalashganligi sababli yangi kiber tilning yaralishi jadallahdi. Bu til, ya’ni “lingo” stenogrammalar va abrevaturalardan iboratdir.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Internetda lingo deb ataluvchi ushbu chat tilidan har kuni chatroomlarda, zumda xabarlarida, bloglar, elektron pochta va boshqa ijtimoiy tarmoqlardagi sharhlarda foydalaniladi.

Lingo to‘liq so‘zlar yoki jumlalardan ko‘ra qisqaroq va osonroq. Biroq, bu tilni deshifrlash siz o‘ylaganingizchalik oson emas. Ko‘pchilik uchun bu xuddi chet tiliga o‘xshaydi.

Qisqartmalardan foydalanish bugungi kunda dunyoga mashhur. Masalan, OK, 4U va CU... Hammasi ko‘pchilik ko‘rgan qisqartmalar. Biroq Internetda tom ma’noda yuzlab bolalar va kattalar foydalanayotgan shu kabi stenogrammalar hammani birdek qoniqtira olyaptimi?

Bu stenogrammalar, abrevaturalar va emojilar ko‘pincha deshifrlash murakkab bo‘lgan kriptografik kodni hosil qiladi, insonlar yuboradigan elektron pochta xabarlarini yoki tezkor xabarlarni o‘qishni qiyinlashtiradi. Bu internet lingosini tushunmagan ota-onalar farzandlari to‘g‘risida turli shubha-gumonlarga borishmoqda va bu ota-onalar va farzandlar o‘rtasida kelishmovchiliklar va nizolarni keltirib chiqarmoqda.

TADQIQOT NATIJALARI

Agar farzandingizga quyidagi xabar kelib tushgan bo‘lsa, uni deshifrlash imkoniga ega bo‘larmidингиз?



Johnny Wilhelm

19/m/ca watz your n/a/s/l? Snd m ur p# we
can pRt! g2g4n

Только что Нравится Ответить

Izoh: Chat facebook ijtimoiy tarmog‘idan olindi.

Ko‘pchilik uchun bu bema’nilik kabi ko‘rinadi, ammo bunday emas. Xabar 19 yoshli o‘g‘il boladan, u Kaliforniyada yashaydi (19 / m / ca), qabul qiluvchining ismi, yoshi, jinsi va joylashuvini so‘ragan (watz ur n/a/s/l). Uning xabari: “Menga telefon raqamingizni yuboring (snd m your p#). Biz birga o‘yin-kulgu qilishimiz mumkin! (we can pRt!) va agar xohlasangiz, buni hoziroq boshlashimiz mumkin (g2g4n). ”

MUHOKAMA

Bu kabi yozishmalarni hatto ingliz tilida so‘zlashuvchilarining o‘zi ham tushunmasligi bu tabiiy.

Ingliz tilshunosi Lorens G.Vesden yoshlar orasida keng tarqalayotgan yangi gibrid til haqida fikr bildirar ekan, shunday deydi:

“Internet kundalik hayotimizning, shuningdek, farzandlarimiz hayotining bir qismiga aylandi. Bugungi kunda bolalar Internet haqida yanada saviyali bo‘lib bormoqda, ba’zi ota-onalar esa orqada qolib bormoqda. Yoshlar va ularning ota-onalari o‘rtasidagi bilim tafovuti kengayib bormoqda. Farzandingiz nima deb yozayotganligini tushunmaslik esa, bu juda og‘ir.

XULOSA

Bolalar va yoshlar elektron pochta, tezkor xabarlar, SMS yozish bilan har doim shug‘ullanadilar, blog yuritish, suhabtlashish ehtiyoji natijasi o‘laroq, yangi til, ya’ni “lingo”

rivojlandi. Bu “lingo” lardan iborat qisqartmalar sifatida ishlataladigan qisqa matnlar va kodlarni ochish juda qiyin bo’lishi mumkin.”

Lorens G.Vesden, shuningdek, bugungi kun yoshlarining yozishmalari butkul tushunarsiz bo‘lib borayotganini qoralaydi va zamonamizni turli “LINGO”lardan ehtiyyot bo‘lishga chaqiradi.

REFERENCES

1. Adam Lind. Chat language (In the continuum of speech and writing). – Linnaeus University, 2012
2. Birkerts, S. “Sense and semblance: The implications of virtuality.” In B. Cox (ed.), Manchester University Press. 1998
3. LAWRENCE WASDEN. Internet Lingo Dictionary A Parent’s Guide to Codes Used in Chat Rooms, Instant Messaging, Text Messaging, and Blogs Attorney General – 700 West State Street Boise, ID 83720-0010